

MILLIY QADRIYATLAR VA YOSHLAR EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Ostanov Jamolidin Elmurodovich
SamDVMCHB universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqlolada shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni haqida so‘z boradi. Bundan asosiy maqsad, yoshlarda tabiatni sevish, uni muhofaza qilish, tabiat nematlaridan oqilona foydalanish kunikmalarini hosil qilish va milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan e’tiborni saqlab qolishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: Qadriyat, aksiologiya, ekologiya, ekologik madaniyat, ekologik dunyoqarash, globallashuv, global muammolar, ekologik muammolar.

Dunyoning bugungi global taraqqiyot bosqichida yoshlar ekologik dunyoqarashini shakllantirish nafaqat global muammolarning oldini oluvchi omil, ayni paytda ekologik xavfsizlikni ta’minlovchi vosita, ekologik madaniyatni yuksaltiruvchi usul sifatida tan olingan. Zamonlar osha shakllangan insoniyat qadriyatlarning qadrsizlanishi muammosi ekologik muammolar bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq jihatlari ham mavjud bo‘lib, ularning yechimi inson ongi, tafakkuri, aql-idroki, intellektual salohiyati va bir butun qadriyatlarni ishtirokida sodir bo‘ladi. Shu bois shaxs ekologik dunyoqarashining aksiologik jihatlarini rivojlantirish va milliy subyektiv omillarini, ekologik qadriyatlarning obyektiv va imkoniyatlarini tadqiq etish ijtimoiy-gumanitar fanlarning asosiy masalaga aylangan.

Yoshlar ekologik madaniyatni shakllattirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro munosabatidan tashkil topgan ontologik voqyelik, gnoseologik jarayonlarning falsafiy tahlili, tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini obyektiv bilish va insoniyatning adekvat faoliyatini ta’minlashga xizmat qiluvchi yangicha metodologik yondoshuvlarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun shaxs ekologik dunyoqarashi shakllanishida: ekologik idrok, tasavvur, tushuncha va tafakkur muhim subyektiv omillar bo‘lib xizmat qiladi. Ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni bilan aloqadorlik nuqtai nazaridan tadqiq etishni, milliy qadriyatlarning falsafiy-metodologik asoslarini, gnoseologik imkoniyatlarini zamonaviy fan paradigmalari asosida o‘rganish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarda ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga mutasaddi davlat tashkilotlari, ommaviy institutlar, maxsus ekologik harakatlar faoliyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor

masalasi sifatida qaralmoqda. Respublikamizda ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish va yoshlarda ekologik dunyoqarashini ilmiy-pedagogik kompleksni shakllantirish masalalari kun tartibiga qo‘yilgan. Prezidentimiz ta’kidlaganidek «...Bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin»¹. Shuning uchun yurtimizda yoshlarning ekologik madaniyatini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan dialektik aloqadorlikda ilmiy tadqiq etish, ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda vujudga kelgan ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirishda ekologik dunyoqarash genezisini, ijtimoiy-tarixiy asoslarining yoshlar ma’naviy hayoti milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi va tadrijiy rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganishga qaratilgan e’tiborni yanada kuchaytirish lozim. Avvalo shaxsning ekologik tafakkur tarzi yashab turgan mintaqaning tabiiy-geografik iqlimi, shart-sharoiti, u mansub bo‘lgan millat yoki xalqning mentaliteti, turmush maromi, tarixi, urf-odati, e’tiqodi, dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq. Yoshlarning ekologik ongi darajasini, ekologik dunyoqarashi xarakterini yaxshiroq tushunish uchun, ularning rivojlanish jarayonida qanday zamonaviy omillarning ta’sir etayotganligi, globallashuv jarayonlarining ta’sirini anglash nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega. Globallashuv jarayonlarining umumiyl xususiyatlari yoshlarning tabiatdan “begonalashuvi” va “ekologik marginallashuvida”² namoyon bo‘lmoqda. Yuqorida fikr mantig‘idan shunday xulosa kelib chiqadiki, ekologik dunyoqarashning tag-zaminlaridan biri – shaxsning borliq, tabiat va jonzotlarga nisbatan axloqiy mas’ulligi hisoblanadi. Ekologik dunyoqarashning ikkinchi muhim komponenti shaxs ekologik ruhiyati bo‘lib, uning ifodasini insonning tabiatga bo‘lgan mehri, his-tuyg‘ularida ko‘rish mumkin. Shunga ko‘ra, shaxs dunyoqarashini ekologik muammolar kontekstida olib qarasak: shaxs – tabiiy-ijtimoiy jarayonlar natijasida vujudga kelgan ekologik vaziyat mahsuli bo‘lib, ekologik-ijtimoiy munosabatlarga, sivilizasiyalarning o‘zaro uyg‘unligiga ilmiy dunyoqarashi asosida ta’sir ko‘rsatadigan, o‘zida tabiiy-fiziologik, psixologik, irsiy va ijtimoiy ta’sirlar evolyusiyasini mujassamlashtirgan individdir.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, shaxs ijtimoiy maqomini belgilaydigan mezonlar tizimida uning ekologik madaniyati alohida o‘ringa ega. Hozirgi zamon global muammolari tarkibida ekologik muammolarning ustuvorlashuvi shaxs maqomiga aynan shu nuqtai nazardan yondashishni taqozo qilmoqda. Ekologik dunyoqarash

¹Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичгакўтарамиз. 1- жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 570-б.

²Қаранг: Мамашокиров С. Ваҳимами ёки ҳақиқат. – Тошкент.: Иқтисод-молия, 2012. 114- б.

tuzilishi va uning tarkib topishi murakkab jarayon hisoblanadi. Mazkur sohada ilmiy izlanishlar olib borgan respublikamiz olimlari qarashlarida ham bir-biridan farq qiluvchi nuqtai nazarlar mavjud. Xususan, E.S.Hoshimova qarashlarida ekologik amaliyot obyekti bilan bog‘liq masalalar: global, regional va hududiy xususiyatlar bilan aloqadorlikda olib qaraladi. Muallif asosiy e’tiborni shaxsdagi faol ekologik mavqyeni tarkib topishida ta’lim-tarbiya, xususan e’tiqod, ishonchning o‘rniga qaratgan. Uning fikricha: “Faol ekologik mavqyening shakllanishida shu yo‘nalishdagi ta’lim-tarbiya sohalarining o‘zaro bog‘lanishi juda katta ahamiyatga ega. Bu jarayonda ekologik tarbiya tabiatga nisbatan nazariy qarashlarni shakllantirishdangina iborat bo‘lmasdan, shu bilan birga e’tiqod shakllanishini va amaliy faoliyatga tayyorgarlikni ham nazarda tutadi»¹.

Umuman, ekologik dunyoqarash har bir davr taqozosi, tabiiy muhit, ijtimoiy voqyealar, global hodisalar ta’sirida muntazam o‘zgarib, yangilanib boruvchi ijtimoiy ongning muayyan shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi dunyoning sanoatlashgan davrida ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga bo‘lgan yangicha yondoshuvlar ham bunga yorqin misol bo‘ladi. Shunga ko‘ra, keng ma’noda: ekologik dunyoqarash bu – insonni tabiatdagi o‘zgarishlarning tabiiy, ijtimoiy va texnogen omillarini mohiyatan anglash, baholash hamda oqibatlarini oldindan his qila bilishni: g‘oyalarda, nazariyalarda, ta’limotlarda ifodalab, global tabiiy va antropogen o‘zgarishlarga moslashishga yo‘naltirilgan intellektual salohiyatining majmuidir,- deb ta’riflanish mumkin.

Shunday qilib, insonning intellektual salohiyatining muhim jihatni bo‘lgan ekologik dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyatlari va funksiyalarini muhokama qilish, ularning adabiyotlarda berilgan talqinlarini tahlil qilish, quyidagi xulosalarga kelish imkoniyatini beradi:

birinchidan, ekologik dunyoqarash tarixidagi ma’naviy-madaniy merosni ijodiy rivojlantirish, ular o‘rtasidagi vorislik munosabatlarini tahlil etish hozirgi davr ekologik dunyoqarashini shakllantirib, keskinlashayotgan va globallashayotgan ekologik muammolarni hal qilishning muhim omiliga aylanmoqda;

ikkinchidan, turli tarixiy davrlarda shaxs ekologik dunyoqarashi shakllanishi obyektiv shart-sharoitlari va subyektiv omillari: afsonaviy, diniy mazmundagi g‘oyalari sintezlashuvi zamonaviy ekologik dunyoqarashni shakllantirishning nazariy va metodologik asoslarini tashkil etadi.

¹Хошимова Э.С. Экология проблемасида глобал ва зонал муносабатлар. – Тошкент.: Фан, 1986, 36- б.

Zero, har qanday tarixiy davrda «ma’naviy-ruhiy tiklanish insonning yerga va uning boyliklariga bo‘lgan munosabatini o‘z ichiga olishi lozim»¹. Bu munosabatlar dialektikasi, shaxs ekologik sifatlarini shunchaki kun tartibiga qo‘yish bilan emas, balki insonda tabiatni muhofaza qilishhis-tuyg‘ularini tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, bu sohadagi amaliy tajribalarini chuqurlashtirishga bog‘liq degan xulosaga kelingan.

Tarixdan ma’lumki, qadimgi Sharq sivilizasiyalarida amal qiluvchi qadriyatlar tizimi ming yillar mobaynida nisbatan turg‘un saqlangan. Masalan, Qadimgi Hindiston va Xitoy falsafiy ta’limotlarida animizm ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu holatlar qadimgi dunyoda tarkib topgan tabiat oldida sajda qilish, uning narsa va hodisalarini oliy qadriyat deb tan olish va shunga muvofiq munosabatni saqlab qolgan. Kapitalistik munosabatlar tabiatni utilitar qadriyatga aylantirdi, unga faqat merkantil munosabatni tikladi va tabiat juda kuchli antropogen ta’sirni boshdan kechira boshladi. Hozirgi ayanchli vaziyat ekologik madaniyat inqirozi bilan chambarchas bog‘liq.

Shuni e’tirof etish kerakki, «bugungi kunda odamlarda ekologik bilimlarning yetarli emasligi, ba’zilarda umuman yo‘qligi bilinib qolmoqda. Ko‘pchilik ekologik muammolar mavjudligidan xabardor, ba’zilar kechiktirib bo‘lmas qarorlar qabul qilish kerakligini, atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘lida tub burilish zarurligini talab qilishsa, boshqa toifadagi odamlar buni keragi yo‘q deb o‘ylashadi»². Aynan shu masalada ekologik dunyoqarashning funksional ahamiyati ko‘zga tashlanadi. Ya’ni, turli-tuman odamlarning, ijtimoiy birliklarning maqsadlari umumiyligi qadriyatlar umumiyligini ta’minlaydi

Yuqoridaagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib milliy va umuminsoniy qadriyatlarning shaxs ekologik madaniyati shakllanishi bo‘yicha quyidagicha xulosalar qilishimiz mumkin:

Shaxs ekologik madaniyatni shakllantirishda ma’naviy-madaniy merosni zamon bilan hamnafas rivojlantirish, keskinlashayotgan va globallashayotgan ekologik muammolarni hal qilishning muhim subyektiv omiliga aylanmoqda. Shaxs ekologik dunyoqarashi shakllanishining obyektiv shart-sharoitlari va subyektiv omillari tarkibida diniy qadriyatlar, milliy urf-odatlar, an'analar, o‘tmish mutafakkirlarining ilmiy va badiiy ijodiy merosi sintezlashuvi zamonaviy ekologik dunyoqarashni shakllantirishning nazariy va metodologik asoslarini tashkil etadi.

¹Қаранг: Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари – Тошкент.: Ўзбекистон, 1999. 530-531- б.

²Ашрапов М. Экологик дунёқарашиб. // "Ўзбекистон экология хабарномаси" 2005, №3, (54), 29- 6.

Bugungi ziddiyatli davrdagi global o‘zgarishlar ekologik dunyoqarash paradigmalarini o‘zgartirib, insoniyatning ekologik faoliyati yo‘nalishlarini, xarakterini va rivojlanish tendensiyalarini shaxs ekologik ongi va dunyoqarashi evolyusiyasida namoyon qilmoqda. Shaxs ekologik dunyoqarashi rivojlanishi jarayonida shakllangan va muayyan maqsadga yo‘naltirilgan milliy ekologik qadriyatlarga munosabatida har bir millatning o‘zligini anglashi namoyon bo‘lmoqda,

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1- jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari – Toshkent.: O‘zbekiston, 1999.
3. Mamashokirov S. Vahimami yoki haqiqat. – Toshkent.: Iqtisod-moliya, 2012.
4. Hoshimova E.S. Ekologiya problemasida global va zonal munosabatlar. – Toshkent.: Fan, 1986
5. Ashrapov M. Ekologik dunyoqarash.// "O‘zbekiston ekologiya xabarnomasi" 2005,
6. Internet ma’lumotlari.